

RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY AXBOROTLARNI O‘RNI

Samatov Azizbek Abdulaxatovich

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
“Biznes boshqaruvi va moliya” kafedrası dotsenti PhD,
<https://orcid.org/0009-0008-1391-0720>
E-mail: aziz_samatov@gmail.com

Annotatsiya

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishida zamonaviy axborot texnologiyalari hal qiluvchi omil bo‘lib, iqtisodiy o‘shiga katta ta‘sir ko‘rsatmoqda. Mazkur tadqiqot global va O‘zbekiston tajribasi asosida AKT, internet, sun‘iy intellekt va elektron tijoratning iqtisodiy o‘shiga ta‘sirini tahlil qilingan. Qiyosiy va statistik tahlil asosida axborot texnologiyalarining samarali qo‘llanilishi, mehnat unumdorligi va YIM o‘shiga qo‘shgan hissasi ilmiy asoslangan. Tadqiqot yakunida raqamli transformatsiyani jadallashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, internet, sun‘iy intellekt, AKT, iqtisodiy o‘sh, elektron tijorat, O‘zbekiston, raqamli transformatsiya, innovatsiya.

Аннотация

Цифровые технологии играют ключевую роль в стремительном развитии цифровой экономики, оказывая значительное влияние на экономический рост. В настоящем исследовании проанализировано воздействие ИКТ, интернета, искусственного интеллекта и электронной коммерции на экономическое развитие на глобальном уровне и в контексте Узбекистана. Сравнительный и статистический анализ подтвердил вклад современных информационных технологий в повышение производительности труда и рост ВВП. В завершении предложены практические рекомендации по ускорению цифровой трансформации.

Ключевые слова: цифровая экономика, информационные технологии, интернет, искусственный интеллект, ИКТ, экономический рост, электронная коммерция, Узбекистан, цифровая трансформация, инновации.

Abstract

Modern information technologies play a crucial role in the rapid development of the digital economy, significantly impacting economic growth. This study analyzes the influence of ICT, the internet, artificial intelligence, and e-commerce on economic development, both globally and within Uzbekistan. Comparative and statistical analyses confirm the contribution of information technologies to labor productivity and GDP growth. The study concludes with practical recommendations to accelerate digital transformation processes.

Keywords: digital economy, information technology, internet, artificial intelligence, ICT, economic growth, e-commerce, Uzbekistan, digital transformation, innovation.

KIRISH

XXI asr boshida jahon iqtisodiyotida fundamental o'zgarishlar ro'y bermoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi iqtisodiy munosabatlarning yangi shaklini — raqamli iqtisodiyotni vujudga keltirdi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda raqamli iqtisodiyot jahon yalpi ichki mahsulotining taxminan 15 foizini, ya'ni 108 trillion dollardan 16 trillion dollarni tashkil etgan [1]. Ushbu ko'rsatkich raqamli transformatsiyaning global miqyosda qanchalik chuqur kirib borganligini yaqqol namoyon etadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari iqtisodiy osishning muhim omillaridan biriga aylandi. OECD tomonidan 2024-yilda e'lon qilingan hisobotga ko'ra, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori 2013-2023 yillar davomida o'rtacha 6,3 foiz osish suratini namoyon etgan bo'lib, bu umumiy iqtisodiyot osish suratidan uch baravar yuqoridir [2]. 2023-yilda ushbu sektor 7,6 foizlik rekord osishni qayd etdi.

Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi (ITU) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda dunyo bo'yicha 5,5 milliard kishi internetdan foydalanmoqda, bu jahon aholisining 68 foizini tashkil etadi [3]. Internet foydalanuvchilari soni 2023-yilga nisbatan 227 million kishiga ko'paydi. Ushbu statistik ma'lumotlar raqamli infratuzilmaning jadal kengayishini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning maqsadi raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida zamonaviy axborot texnologiyalarining orni va ta'sir mexanizmlarini ilmiy asoslash, shuningdek O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiya jarayonlarini tahlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalarining iqtisodiy osishga ta'siri mavzusida keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Pohjola axborot texnologiyalarining mehnat unumdorligiga ta'sirini tadqiq etib, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi farqlarni tahlil qilgan [4].

Niebel 59 ta mamlakatni qamrab olgan tadqiqotida AKT kapitalining iqtisodiy osishga tasirini tahlil qilgan [5]. Tadqiqot natijalari AKT va YaIM osishi o'rtasida ijobiy korrelyatsiyani tasdiqladi.

Yevropa Parlamentining tadqiqot xizmati katta ma'lumotlar (Big Data) ning iqtisodiy ta'sirini o'rganib, katta ma'lumotlar tahlilini qo'llaydigan kompaniyalar unumdorligi 5-10 foizga oshishi mumkinligini aniqlagan [6].

MIT Sloan tadqiqotida Acemoglu suniy intellektning kelgusi 10 yil ichida umumiy omil unumdorligiga taxminan 0,7 foiz hissa qolishini prognoz qilgan [7]. Penn Wharton Budget Model esa generativ sun'iy intellekt AQSh mehnat unumdorligini yillik 1,8 foizga oshirishi mumkinligini ko'rsatgan [8].

Xalqaro Valyuta Fondi sun'iy intellektning global mehnat bozoriga ta'sirini tahlil qilib, rivojlangan mamlakatlarda ish o'rinlarining 60 foizi sun'iy intellekt ta'siriga duchor bolishi mumkinligini aniqlagan [9].

O'zbekiston kontekstida Abdurakhmonov va Turaev raqamli transformatsiya jarayonlarini tadqiq etgan [10]. Ismailov raqamli iqtisodiyotning O'zbekiston YaIMidagi ulushini o'rganib, 2020-2022 yillar orasida bu ko'rsatkichning 1,99 foizdan 2,77 foizga osganligini aniqlagan [11].

METODOLOGIYA

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik tahlil va tizimli yondashuv metodlari qo‘llanilgan. Ma’lumotlar manbai sifatida xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari va statistik bazalari ishlatilgan.

Tadqiqot 2020-2024 yillar davomidagi ma’lumotlarni qamrab oladi. Tahlil uchun AKT sektori osishi, internet penetratsiyasi, elektron tijorat hajmi, raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi kabi asosiy ko‘rsatkichlar tanlab olindi.

Metodologik jihatdan tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi: xalqaro statistik ma’lumotlar yig‘ildi va tizimlashtirildi; qiyosiy tahlil orqali turli mamlakatlar ko‘rsatkichlari o‘rganildi; O‘zbekiston misolida chuqur tahlil o‘tkazildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

OECD ma’lumotlariga ko‘ra, AKT sektori jahon iqtisodiyotining eng dinamik tarmoqlaridan biriga aylangan. 2013-2023 yillar davomida OECD mamlakatlarida AKT sektori o‘rtacha 6,3 foiz osish suratini namoyon etgan [2]. 2023-yilda sektor 7,6 foizlik rekord osishni qayd etdi.

Mamlakatlar kesimida ko‘rib chiqilganda, Buyuk Britaniya va Belgiyada AKT sektori osishi 2023-yilda 11 foizdan oshdi. Germaniya, Avstriya va Niderlandiya 10 foizdan yuqori ko‘rsatkichlarni namoyon qildi [12].

1-jadval.

AKT sektori osish ko‘rsatkichlari (OECD mamlakatlari, 2023)¹

Mamlakat	AKT sektori osishi, foizda	Umumiy iqtisodiyot osishi, foizda
Buyuk Britaniya	11,2	0,3
Belgiya	11,1	1,5
Germaniya	10,5	-0,1
Avstriya	10,3	0,1
Niderlandiya	10,1	0,1
OECD o‘rtachasi	7,6	1,6

ITU Facts and Figures 2024 hisobotiga ko‘ra, 2024-yilda dunyo boyicha 5,5 milliard kishi internetdan foydalanmoqda, bu jahon aholisining 68 foizini tashkil etadi [3]. Yuqori daromadli mamlakatlarda aholining 93 foizi internetdan foydalanadi. Past daromadli mamlakatlarda esa bu ko‘rsatkich atigi 27 foizni tashkil etadi.

2024-yilda global elektron tijorat bozori hajmi 10-26 trillion dollar oraligida baholangan [13]. Grand View Research malumotlariga ko‘ra, 2023-yilda global elektron tijorat bozori hajmi 25,93 trillion dollarni tashkil etgan va 2030-yilga borib 83,26 trillion dollarga yetishi prognoz qilinmoqda [14].

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi elektron tijorat bozorida yetakchi o‘rinni egallaydi va 2023-yilda bozorning taxminan 40 foizini tashkil etgan. Mobil qurilmalar orqali xaridlar 2024-yilda umumiy elektron tijoratning 73 foizini tashkil etgan [15].

Katta ma’lumotlar bozori jadal osish tendensiyasini namoyon etmoqda. Global katta ma’lumotlar tahlili bozori 2023-yilda 307,52 milliard dollarni tashkil etgan va 2032-yilga borib 924,39 milliard dollarga yetishi prognoz qilinmoqda [17].

¹ Manba: OECD Digital Economy Outlook 2024 [2]

Penn Wharton Budget Model prognozlariga ko‘ra, generativ sun‘iy intellekt AQSh mehnat unumdorligini yillik 1,8 foizga oshirishi mumkin [8]. Acemoglu (2024) sun‘iy intellektning kelgusi 10 yil ichida YaIMga maksimal 1,8 foiz hissa qo‘shishini prognoz qilgan [7].

2-jadval.

Sun‘iy intellektning iqtisodiy ta‘siri prognozlari¹

Manba	Ko‘rsatkich	Prognoz qiymati, foizda
Penn Wharton (2025)	Mehnat unumdorligi	Yillik 1,8
Acemoglu/MIT (2024)	YaIM osishiga hissa	10 yilda 1,1-1,8
Goldman Sachs	YaIM osishi	10 yilda 0,9
IMF (2024)	Ta‘sir (rivojlangan)	60 foiz ish o‘rinlari
IMF (2024)	Ta‘sir (rivojlanayotgan)	40 foiz ish o‘rinlari

O‘zbekiston raqamli transformatsiya sohasida sezilarli yutuqlarga erishdi. 2023-yilda O‘zbekistonda aloqa va axborot xizmatlari hajmi 32,2 trillion somga yetdi, bu 2022-yilga nisbatan 24,6 foizga ko‘p [20].

Raqamli iqtisodiyotning O‘zbekiston YaIMidagi ulushi sezilarli osishni namoyon etdi: 2020-yildagi 1,99 foizdan 2022-yilda 2,77 foizga, 2024-yilda esa 5,5 foizga yetdi [10, 11, 21]. AKT xizmatlari eksporti 2020-yildagi 169,3 million dollardan 2022-yilda 306 million dollarga oshdi.

Internet penetratsiyasi sohasida ham ijobiy dinamika kuzatilmoqda. 2024-yil boshida O‘zbekistonda 29,52 million internet foydalanuvchisi mavjud bo‘lib, bu aholining 83,3 foizini tashkil etadi [22]. 2025-yil boshiga kelib bu ko‘rsatkich 32,7 million kishiga (87,2 foiz) yetdi [23].

Elektron tijorat bozori ham jadal rivojlanmoqda. 2024-yilda O‘zbekiston elektron tijorat bozori hajmi 1,2 milliard dollarni tashkil etdi, bu chakana savdo bozorining 3,8 foizini egallaydi [23].

3-jadval.

O‘zbekiston raqamli iqtisodiyoti ko‘rsatkichlari dinamikasi²

Ko‘rsatkich	2020-yil	2022-yil	2024-yil
Raqamli iqtisodiyot YaIM ulushi,	1,99	2,77	5,5
Internet penetratsiyasi, foizda	71	78	87,2
AKT eksporti, mln AQSH dollar	169,3	306	~400
Elektron tijorat, mlrd AQSH dollar	0,4	0,8	1,2
Fintech foydalanuvchi, foizda	45	65	79

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy axborot texnologiyalari raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. AKT sektori jahon iqtisodiyotining eng dinamik tarmoqlaridan biriga aylangan bo‘lib, 2013-2023 yillar davomida OECD mamlakatlarida umumiy iqtisodiyotdan uch baravar tez osdi.

¹ Manba: Penn Wharton, MIT Sloan, Goldman Sachs, IMF [7], [8], [9]

² Manba: Ozbekiston Statistika agentligi, DataReportal, Trade.gov [11], [22], [23]

Global internet penetratsiyasi 2024-yilda 68 foizga yetdi, biroq 2,6 milliard kishi hali ham internetga ulanmagan. Elektron tijorat bozori global miqyosda jadal osmoqda va 2030-yilga borib 83 trillion dollarga yetishi prognoz qilinmoqda.

O'zbekiston raqamli transformatsiya sohasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi 2020-yildagi 1,99 foizdan 2024-yilda 5,5 foizga oshdi. Internet penetratsiyasi 87 foizga yetdi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish: qishloq joylarda keng polosali internetni kengaytirish, 5G tarmog'ini joriy etish, ma'lumotlar markazlari quvvatini oshirish.

2. Raqamli savodxonlikni oshirish: ta'lim tizimida IT fanlarini kengaytirish, qayta tayyorlash dasturlarini joriy etish.

3. Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalarini joriy etish: davlat xizmatlarida, sanoat va qishloq xojaligida sun'iy intellektni qo'llash.

4. Elektron tijoratni qo'llab-quvvatlash: huquqiy bazani takomillashtirish, raqamli tolov tizimlarini rivojlantirish.

5. Kiberxavfsizlikni ta'minlash: ma'lumotlarni himoya qilish tizimini mustahkamlash, xalqaro standartlarni joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. IDCA. Global Digital Economy Report — 2025. <https://www.idc-a.org/insights/qUi9XgvyrzSkyDUy9Tqr>

2. OECD. Digital Economy Outlook 2024 (Volume 1). https://www.oecd.org/en/publications/2024/05/oecd-digital-economy-outlook-2024-volume-1_d30a04c9.html

3. ITU. Facts and Figures 2024 — Internet use. <https://www.itu.int/itu-d/reports/statistics/2024/11/10/ff24-internet-use/>

4. Pohjola, M. Information Technology, Productivity, and Economic Growth. Oxford University Press, 2001.

5. Niebel, T. ICT and economic growth. World Development, 2018. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0305750X17303868>

6. European Parliament Research Service. Economic impact of Big Data. 2016. <https://epthinktank.eu/2016/09/29/economic-impact-of-big-data/>

7. MIT Sloan. A new look at the economics of AI. 2025. <https://mitsloan.mit.edu/ideas-made-to-matter/a-new-look-economics-ai>

8. Penn Wharton Budget Model. The Projected Impact of Generative AI. 2025. <https://budgetmodel.wharton.upenn.edu/issues/2025/9/8/projected-impact-of-generative-ai-on-future-productivity-growth>

9. IMF. AI Will Transform the Global Economy. 2024. <https://www.imf.org/en/blogs/articles/2024/01/14/ai-will-transform-the-global-economy-lets-make-sure-it-benefits-humanity>

10. Abdurakhmonov, K., Turaev, N. Digital transformation in Uzbekistan. Central Asian Journal of Economic Studies, 2022.

11. Ismailov, B. Uzbekistan in the Process of Digitalization. 2023. <https://eupoliticalreport.com/uzbekistan-in-the-process-of-digitalization/>

12. OECD. Growth of digital economy outperforms overall growth. 2024. <https://www.oecd.org/en/about/news/press-releases/2024/05/growth-of-digital-economy-outperforms-overall-growth-across-oecd.html>
13. IMARC Group. E-commerce Market Size, Share, Trends. <https://www.imarcgroup.com/e-commerce-market>
14. Grand View Research. E-commerce Market Report, 2030. <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/e-commerce-market>
15. Mordor Intelligence. Ecommerce Market Forecast 2030. <https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/global-ecommerce-market>
16. International Trade Administration. eCommerce Sales Forecast. <https://www.trade.gov/ecommerce-sales-size-forecast>
17. Scoop Market.us. Big Data Statistics (2025). <https://scoop.market.us/big-data-statistics/>
18. Amundi Research Center. Economic impacts of AI. 2025. <https://research-center.amundi.com/article/diverse-economic-impacts-artificial-intelligence>
19. UNDP. Digital Economy of Uzbekistan. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-05/uz_digital-economy-study_eng.pdf
20. CAICT. Uzbekistan Digital Economy Overview 2030. 2024. https://aict.uz/caict_uzbekistan_digital_economy_overview_vision_2030.pdf
21. Phoenix Publication. Digital Technologies Impact on Uzbekistan. 2025. <https://phoenixpublication.net/index.php/TTVAL/article/view/5398>
22. DataReportal. Digital 2024: Uzbekistan. <https://datareportal.com/reports/digital-2024-uzbekistan>
23. U.S. Department of Commerce. Uzbekistan — eCommerce. <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-ecommerce>
24. UNCTAD. Digital Economy Report 2024. <https://unctad.org/publication/digital-economy-report-2024>
25. World Bank. Digital Progress and Trends Report. <https://www.worldbank.org/en/publication/digital-progress-and-trends-report>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri:	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri:	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih:	Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar:	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, dekabr, 12-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**